

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyi haning turi: Shartnoma.

2. Loyi haning nomi: "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali bilan Quyi Chirchiq tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi o'rtasida gaz tarmoqlari orqali tabiiy gaz etkazib berish to'g'risidagi shartnoma loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Quyi Chirchiq tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2022 yil 28 yanvar kuni elektron tizimga kiritilgan.

"Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali bilan Quyi Chirchiq tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi o'rtasida gaz tarmoqlari orqali tabiiy gaz etkazib berish to'g'risidagi tuzilayotgan shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Taraflar o'rtasida tuzilayotgan mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talablariga, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa tegis'hli qonun hujjatlari talablariga mos ravis'hda tuzilgan.

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda tomonlarga javobgarlik choralari qo'llanilihi, kelis'hmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda o'zaro hal qilish yoki tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilish tartibi, barcha qoshimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda ikki tomonlama imzolanib tasdiqlangan holda tuzilishi nazarda tutilgan.

Shartnoma loyihasida taraflarning javobgarligi va nizolarni hal yetish tartibi va boshqa kelishilgan barcha shartlar qonun hujjatlari talablariga mos keladi va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsul'ti



T.Chegaboyev

2022yil «28» yanvar